O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 11 - sentabr 301-11-0-Q/23 Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi 428-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

Tashqi reklama va ijtimoiy axborotni joylashtirish sohasini tizimli tartibga solish, mazkur yo‘nalishda qat’iy nazorat o‘rnatish, tashqi reklama bozorining ishtirokchilari uchun teng imkoniyatlar yaratib, mulk dahlsizligini ta’minlash, sohaga oid munosabatlarni raqamlashtirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi 428-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi “Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 428-sonli qarori **rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin**.

2. Ushbu qaror bilan “Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarni) o‘rnatish chizmalarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, “Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish huquqini rasmiylashtirish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti”, “Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) demontaj qilish va demontaj qilingan konstruksiyalarni saqlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomlar tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. **2023-yil 1-dekabrdan boshlab:**

- tashqi reklama bozori ishtirokchilari uchun teng sharoitlar yaratish hamda sohada shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan “Tashqi reklama” **raqamli monitoring elektron tizimi** joriy etilishi;

- davlat mulki bo‘lgan yer uchastkalari, binolar hamda inshootlarda yangi o‘rnatiladigan tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) qurish huquqi uchun elektron onlayn-auksion yakunlari bo‘yicha to‘lov hamda tashqi reklama va axborot obyektlarida (konstruksiyalarida) tashqi reklamani joylashtirish (tarqatish) uchun yig‘im o‘rniga miqdori ochiq elektron auksion savdolari orqali belgilanadigan **tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o‘rnatish** va **unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquq uchun yagona oylik yig‘im** (keyingi o‘rinlarda - yig‘im) joriy etilishi;

- davlat mulki bo‘lgan yer uchastkalarida, bino hamda inshootlarda tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) uchun reklama joyining pasporti hamda ularni o‘rnatish uchun shartnomalar ommaviy oferta shaklida “E-auksion” elektron savdo platformasining yagona elektron savdo maydonchasida **auksion g‘olibiga avtomatik** tarzda berilishi;

- xususiylashtirilgan, ijaraga berilgan yoki nodavlat tashkilotlarga doimiy foydalanish huquqi asosida tegishli bo‘lgan yer uchastkalarida, shuningdek, xususiy mulk bo‘lgan binolar va inshootlarda hamda transport vositalarida (yunalishlardagi avtobuslar bundan mustasno) tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish huquqini beruvchi **reklama joyining pasporti** O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda - YAIDXP) axborot tizimi orqali berilishi;

- tashqi reklamani joylashtirish sohasini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlanganligi, viloyat hokimligi tashqi reklamani joylashtirish sohasini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari bajarilishiga mas’ul etib belgilanganligi;

- viloyat hokimligi, ikki hafta muddatda O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish Qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda - Qo‘mita) tomonidan taqdim etilgan namunaviy tartib asosida tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o‘tkazish tartibini tasdiqlanishi, O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari boshqarmasi hamda Qo‘mita bilan birgalikda 2023-yil 1-dekabrga qadar manfaatdor tashkilotlarni jalb qilgan holda, tashqi reklama va axborot **obyektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o‘tkazilishi,** tashqi reklama va axborot obyektlarining (konstruksiyalarining) belgilangan tartiblarga muvofiq o‘rnatilganligi ustidan doimiy nazoratni ta’minlash belgilanganligi;

- Viloyat hokimligiga tashqi reklama sohasiga oid vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida zaruratga ko‘ra 2024-yil 1-martga qadar tegishli mahalliy byudjetlardan, 2024-yil 1-martdan boshlab byudjetdan tashqari jamg‘arma hisobidan moliyalashtiriladigan tashqi reklamani **muvofiqlashtirish bo‘linmalarini** tashkil etish huquqi berilganligi;

- amal qilish muddati belgilanmagan reklama joyi pasportlarining amal qilish muddati davlat mulki bo‘lgan bino va inshootlar uchun **2024-yil 1-dekabrgacha** va yer uchastkalari uchun **2030-yil 1 dekabrgacha** etib belgilanganligi, bunda mazkur qoida (tashqi reklama bo‘yicha tegishli to‘lov va yig‘imlardan oxirgi besh yil muddat uchun qarzdorligi mavjud bo‘lmaganda, reklama joyining pasporti va texnik xavfsizlik talablariga muvofiq o‘rnatilganligi haqida tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan vakolatli tashkilotning joriy yildagi xulosasi mavjud bo‘lganda, reklamadan holi hududlarda joylashtirilmaganda (jamoat transporti to‘xtash bekatlari bundan mustasno), reklama joylashtirish huquqini belgilovchi xujjatlarning elektron nusxalari taqdim qilinganda) talablarga javob beradigan tashqi reklama obyektlariga tatbiq etilishi;

- ilgari berilgan reklama joyining pasport egalari tomonidan **2024-yil 1-martga qadar** ularni yangi shakldagi reklama joyining pasportiga almashtirish uchun YAIDXP axborot tizimi orqali ariza topshirilishi va ushbu bandida ko‘rsatilgan muddatda yangi shakldagi reklama joyining pasportiga almashtirish uchun ariza topshirilmaganda, ushbu pasportlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanishi;

- Viloyat hokimligi **2023-yil 1-dekabrga qadar,** tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish va ulardan foydalanish qoidalari hamda ularni o‘rnatish chizmalari tasdiqlash, qo‘mitaning hududiy boshqarmasi bilan birgalikda tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish uchun shartnoma ommaviy ofertasining namunaviy shaklini ishlib chiqilishi;

- O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi Toshkent shahar hokimligi huzuridagi Raqamli rivojlantirish departamenti (keyingi o‘rinlarda – Departament) bilan birgalikda 2023-yil 1-dekabrga qadar “Tashqi reklama” raqamli monitoring elektron tizimi (keyingi o‘rinlarda – elektron tizim) ishga tushirilishi, bunda, elektron tizimni joriy etish va texnik qo‘llab-quvvatlash uchun – departament hamda elektron tizim ishlashini ta’minlash bo‘yicha ishlarni

muvofiqlashtirish uchun – raqamli texnologiyalar vazirligi mas’ul va javobgar hisoblanishi, viloyatlarda elektron tizim joriy etishga “Raqamli hudud” dasturi doirasida **Departament xuzurida** tashkil etiladigan **hududiy loyiha ofislari** mas’ul etib belgilanganligi, viloyat hokimligining tashqi reklamani muvofiqlashtirish bo‘linmalari Departament huzuridagi hududiy loyiha ofislari bilan birgalikda elektron tizimni yuritishligi;

- elektron tizimni ishga tushirish va texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash **Departamentning mablag‘lari** hisobidan amalga oshirilishi, elektron tizim “E-auksion” elektron savdo platformasi va YAIDXP axborot tizimiga integratsiya qilinishi, elektron tizimdan viloyat xokimligi, Qo‘mita, Departament, Ichki ishlar boshqarmasi hamda Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari boshqarmasi tomonidan viloyatning barcha hududlarida bepul foydalanishi, tashqi reklama va axborot obyektlarida (konstruksiyalarida) tashqi reklama joyining pasportini tekshirish imkonini beruvchi **maxsus QR-kod** bo‘lishi shartligi, davlat mulki bo‘lgan yer uchastkalariga tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish huquqini elektron onlayn-auksion savdolarida yutib olgan auksion g‘olibi bilan ushbu yer uchastkalari bo‘yicha alohida yer ijarasi shartnomasi tuzilmasligi, davlat mulki bo‘lgan bino-inshootlarda tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish huquqini elektron onlayn- auksion savdolarida yutib olgan auksion g‘olibi bilan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish shartnomasi ijaraga beruvchi va ijarachi o‘rtasida elektron shaklda (shu jumladan, elektron raqamli imzo orqali) soliq organlarining “E-Ijara” axborot tizimi orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri ikki tomonlama tuzilishi, bunda **2023-yil 1- dekabrdan** boshlab ijara haqining stavkalari bir kvadrat metr uchun viloyat ma’muriy markazida **10 foizi hamda** boshqa hududlarda **7 foizi** miqdorida belgilanganligi;

- **2023-yil 1-dekabrdan boshlab,** tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) elektron auksion savdolariga chiqarishning boshlang‘ich narxi tasdiqlangan yig‘im miqdorida belgilanishi, tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) elektron auksion savdolariga alohida yoki bir nechta obyektlardan iborat lot shaklida qo‘yilishi, yig‘im reklama maydonining (sathining) **bir kvadrat metri uchun** bazaviy hisoblash miqdorining **5 foizidan** kam bo‘lmagan miqdorda belgilanishi, bunda yig‘im xususiylashtirilgan, ijaraga berilgan yoki nodavlat tashkilotlarga doimiy foydalanish huquqi asosida tegishli bo‘lgan yer uchastkalari, shuningdek, xususiy mulk bo‘lgan binolar va inshootlardagi tashqi reklama va

axborot obyektlari (konstruksiyalari) uchun ham tatbiq etilishi, xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan tuman va shaharlarning iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, yig‘im miqdorini belgilash hamda ularga 0,5 dan 3,0 gacha bo‘lgan **kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni** qo‘llash tavsiya etilganligi, transport vositalarida (yunalishlardagi avtobuslar bundan mustasno) reklamani joylashtirish uchun yig‘im miqdori ularning toifasidan kelib chiqib, xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan belgilanishi, tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatishga bo‘lgan huquq uchun oylik yig‘imlardan tushadigan mablag‘lar 2-ilovaga muvofiq taqsimlanishi hamda Soliq qo‘mitasiga yig‘imni undirish choralarini ko‘rish vazifasi yuklanganligi;

- tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) egalarining axborot xavfsizligi yuzasidan mas’uliyatini oshirish va tashqi reklama sohasini tartibga solish maqsadida, tashqi reklama va axborot obyektlarida (konstruksiyalarida) siyosiy **maqsadlarga mo‘ljallangan axborot** faqat O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatga olingan siyosiy partiyalarning, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlarning buyurtmasiga asosan joylashtirilishi, **yo‘l qatnov qismida joylashgan bino va inshootlarning tashqi qismida** har qanday turdagi shaxsiy e’lonlarni joylashtirishga yo‘l qo‘yilmasligi, yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan boshqa yuridik va jismoniy shaxslar hamda jamoatchilik e’tiborini jalb qilish maqsadida joylashtirilgan, reklama tusiga ega bo‘lmagan, **umumiy maydoni bir kvadrat metrdan ko‘p** bo‘lgan e’lonlar **tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) sifatida e’tirof etilishi** hamda ular uchun belgilangan tartibda reklama joyining pasporti rasmiylashtirilishi joriy etilganligi;

- ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi barcha munosabatlarni tartibga soluvchi komissiya tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi va ushbu komissiya tomonidan ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirilishi, har yili 1-dekabrga qadar mahalliy hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan keyingi yilda e’lon qilinadigan ijtimoiy axborot dasturini tasdiqlanishi, tayyorlangan ijtimoiy axborot joylashtiriladigan joylar va ularning grafigini tasdiqlanishi, ijtimoiy axborotni tayyorlash va targ‘ibot jarayonlarini nazorat qilinishi, ommaviy axborot vositalari, tashqi reklama va axborot tarqatuvchilar tomonidan ijtimoiy axborotni joylashtirish hamda tarqatish tartibini belgilanishi, ijtimoiy axborot samaradorligi natijalari yuzasidan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar faoliyatini

muvofiqlashtirilishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi (keyingi o‘rinlarda – Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi) ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi barcha munosabatlarni tartibga soluvchi komissiyaning ishchi organi etib belgilanganligi;

- mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan ijtimoiy axborotni tayyorlash va tarqatish 4-ilovaga muvofiq sxema bo‘yicha amalga oshirilishi;

- mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan ijtimoiy axborotni tayyorlash bo‘yicha tartib o‘rnatilganligi;

- Qo‘mitaning ommaviy axborot vositalari, tashqi reklama va axborotni tarqatuvchilar tomonidan ijtimoiy axborot belgilangan talablar asosida joylashtirilmaganligi uchun bazaviy hisoblash miqdorining **20 baravarigacha miqdorda moliyaviy jarima qo‘llash** to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. **Tashqi reklamani joylashtirish sohasini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

Shahar va tuman hokimliklari tashqi reklamani joylashtirish sohasini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari bajarilishiga mas’ul etib belgilansin.

5. **Ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi barcha munosabatlarni tartibga soluvchi hududiy komissiya tarkibi** 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligining hududiy organi ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi barcha munosabatlarni tartibga soluvchi hududiy komissiyaning ishchi organi etib belgilansin.

6. Farg‘ona teleradiokompaniyasi, Yangi Farg‘ona gazetasi va boshqa ommaviy axborot vositalarida ushbu qarorning maqsad va vazifalari keng yoritilishini tashkil etsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov hamda Farg‘ona viloyati hokimining qurilish, kommunikasiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari X.Isaqov zimmasiga yuklansin.

Farg'ona viloyat hokimi v.v.b **X.Sirojitdinov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 11-sentabrdagi
301-11-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tashqi reklamani joylashtirish sohasini rivojlantirishning

MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

№	Shahar va tumanlar nomi	2023-2025-yillarda yangi o‘rnatiladigan tashqi reklama obyektlari (konstruk-siyalar) prognozi*	2023-yil				2024-yil				2025-yil			
			Jami	Auksionga chiqariladigan konstruksiyalar soni		YAIDXP orqali beriladigan pasportlar bo‘yicha konstruksiya-lar soni	Jami	Auksionga chiqariladigan konstruksiyalar soni		YAIDXP orqali beriladigan pasportlar bo‘yicha konstruksiya-lar soni	Jami	Auksionga chiqariladigan konstruksiyalar soni		YAIDXP orqali beriladigan pasportlar bo‘yicha konstruksiya-lar soni
				LED ekran soni	bilbord soni			LED ekran soni	bilbord soni			LED ekran soni	bilbord soni	
1	Farg‘ona sh	124	48	9	30	9	50	10	30	10	26	2	10	14
2	Qo‘qon sh	157	58	7	48	3	64	10	44	10	35	2	22	11
3	Quvasoy sh	16	5	0	0	5	7	0	7	0	4	0	4	0
4	Marg‘ilon sh	77	23	3	15	5	27	2	19	6	27	2	17	8
5	Oltiariq t	35	11	1	9	1	15	1	10	4	9	0	9	0
6	Bag‘dod t	12	3	0	3	0	6	0	6	0	3	0	3	0
7	Buvayda t	7	2	0	2	0	4	0	4	0	1	0	1	0
8	Beshariq t	19	7	2	4	1	9	1	8	0	3	0	3	0
9	Quva t	19	7	1	5	1	8	0	6	2	4	0	3	1
10	Uchko‘prik t	10	0	0	0	0	5	0	3	2	5	0	3	2
11	Rishton t	21	6	2	4	0	9	0	8	1	6	0	3	3
12	So‘x t	2	0	0	0	0	1	0	0	1	1	0	0	1
13	Toshloq t	15	5	0	5	0	7	0	7	0	3	0	2	1
14	O‘zbekiston t	7	1	1	0	0	3	0	3	0	3	0	3	0
15	Farg‘ona t	12	2	0	2	0	5	0	5	0	5	0	5	0
16	Dangara t	5	0	0	0	0	3	0	3	0	2	0	2	0
17	Furqat t	8	3	0	3	0	3	0	3	0	2	0	2	0
18	Yozyovon t	6	3	0	3	0	1	0	1	0	2	0	2	0
19	Qo‘shtepa t	14	0	0	0	0	6	0	6	0	8	0	8	0
	Jami	**566**	**184**	**26**	**133**	**25**	**233**	**24**	**173**	**36**	**149**	**6**	**102**	**41**

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 11-sentabrdagi
301-11-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Farg‘ona viloyatidagi ijtimoiy axborotni aylanish sohasidagi

barcha munosabatlarni tartibga soluvchi xududiy

KOMISSIYA TARKIBI

1.	X.Bozarov	–	Farg‘ona viloyati hokimi *Komissiya rahbari*
2.	Sh.Karimov	–	Farg‘ona viloyati xalq deputatlari kengashi kotibi *Komissiya rahbari o‘rinbosari*
3.	I.Xalimbekov	–	Farg‘ona viloyati Axborot va ommaviy komunikatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i *Komissiya rahbari o‘rinbosari*
4.	A.Xolmatov	–	Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘i
5.	E.Asronqulov	–	Ijimoiy himoya milliy agentligining Farg‘ona viloyati boshqarmasi boshlig‘i
6.	A.Saydaliyev	–	“Farg‘ona hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ direktori
7.	A.Ikramov	–	Farg‘ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i
8.	A.Buriyev	–	Farg‘ona viloyati Adliya boshqarmasi boshlig‘i
9.	B.Jumanov	–	Farg‘ona viloyati ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi boshlig‘i
10.	F.Tursunov	–	Sirdaryo-So‘x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi
11.	A. To‘xtaqulov	–	Farg‘ona viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i
12.	Sh.Dolimov	–	Farg‘ona viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i
13.	N.Xakimov		Farg‘ona viloyati Sportni rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i
14.	J. Tojiboyev	–	Farg‘ona viloyati Madaniyat boshqarmasi boshlig‘i
15.	A. Rahmonov	–	Farg‘ona viloyati Qurilish bosh boshqarmasi boshlig‘i
16.	A. Kadirov	–	Farg‘ona viloyati Qishloq ho‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i
17.	B.Tashtemirov	–	Farg‘ona viloyati Investitsiya boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari
18.	Z.Ro‘zialiyev	–	Farg‘ona viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi boshlig‘i
19.	M.Sulaymonov	–	Respublika madaniyat va ma’rifat markazi Farg‘ona filiali boshlig‘i
20.	B. Obidjonov	–	Farg‘ona viloyati teleradiokompaniyasi